



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qutivchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 6-sinflar uchun
II yarim yillik

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan II yarim yillik
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida. (BSB topshirig'ining baholash mezonini e'lon qilish)	1		
2.	Zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida	1		
3.	Salomatlik - ulkan boylik	1		
4.	Salomatlik - ulkan boylik	1		
5.	Do‘stlik va mehr-oqibat	1		
6.	Do‘stlik va mehr-oqibat	1		
7.	Rostgo‘ylik va halollik	1		
8.	Rostgo‘ylik va halollik	1		
9.	BSB - 2. (50 ball) Ijodiy ish (sahna ko'rinishi)	1		
10.	Ishonchli va ishonchsiz axborotlar	1		
11.	Oila – qadriyatlar beshigi	1		
12.	Oila – qadriyatlar beshigi	1		
13.	Oilaviy kitobxonlik	1		
14.	Oilaviy kitobxonlik	1		
15.	To‘g‘ri ovqatlanish qoidalari	1		
16.	Ekologik xavflar	1		
17.	CHSB – 2. (40 ball)	1		
18.	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida. (BSB topshirig'ining baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida mavzusi haqida tushunchalar berish, Vatan - O'zbekiston bilan faxrlanishni, mahalla va oilani qadrlashni uqtirish, turli kasb egalarining Vatanimiz rivojiga qo'shgan hissalarini haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: har bir ishni o'z vaqtida, puxta bajarishni, sog'lig'i hamda tabiatni asrashni, kitob o'qishning odamga qanchalik foydali ekanligini, ulug' mutafakkirlarning serma'no o'g'itlari, bir-biridan qiziq rivoyatlar ezgulik va yovuzlik, to'g'ri va noto'g'ri xulqlar qanday bo'lishini, har xil vaziyatlarda inson o'zini qanday tutishi zarurligini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: mashhur insonlarni muvaffaqiyatga erishtirgan fazilatlarini haqida ma'lumotlar berish orqali dunyoqarashini kengaytirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Bugungi kunda barcha insonlar zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi: mobil aloqa; matnli, ovoqli va videoxabarlar; kompyuter o'yinlari; internet orqali xaridlar; rasm va videotasvirga olish hamda ularni dunyoning xohlagan joyiga bir zumda yuborish. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar maishiy hayotimizni ham yengillashtiradi: mikroto'lqinli pechlar, kir yuvish mashinalari, kabelli televideniye, raqamli elektr-gaz-suvhisoblagichlari, elektron pul o'tkazmalari va hokazo. Zamonaviy texnologiyalarning ko'plab afzalliklari mavjud. Masalan, audio, video va matnlar orqali chet tillarni mustaqil ravishda o'rganishimiz, matematikadan turli funksiyalarning grafiklarini tahlil qilishimiz mumkin.



2-topshiriq. Bugungi kunda foydalanayotgan texnologiyalaringiz haqida o‘ylab ko‘ring va quyidagi topshiriqni bosqichma-bosqich bajaring:

1. Doim foydalanadigan texnologiyalaringizdan beshtasining nomini keltiring.
2. Siz foydalanayotgan ushbu texnika siz uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Ular o‘rmini bosuvchi boshqa texnologiyalar bormi?
4. Agar ushbu texnologiyalar hayot tarzingizdan chiqib ketsa, hayotingiz qanday o‘zgarar edi? Ulardan voz kecha olasizmi?

Raqamli olam – zamonaviy axborot texnologiyalari va qurilmalar, ular orqali taqdim qilingan turli xizmatlar.

Media – axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun xizmat qiluvchi vositalar.

Raqamli media – elektron axborot va aloqa vositalari. Masalan, kompyuter dasturlari, raqamli video va audio, veb-saytlar, elektron kitob, gazeta va jurnallar.

SMARTFON VA PLANSHET

Smartfon va planshetlar bugungi kunda barcha insonlar foydalanadigan asosiy qurilmaga aylandi. Ularning juda ko‘plab qulayliklari mavjud va ular bizning eng yaqin yordamchimiz. Lekin biz ularga bog‘lanib qolmayapmizmi? Smartfondan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi savollarga javob bering va o‘z faoliyatingizni tahlil qiling.

3-topshiriq. Guruhlarga birlashib, jadvalda berilgan savollarga javob toping:

 Smartfonlarning qanday afzalliklari bor? <ol style="list-style-type: none">1. So‘zlashish mumkin2. Matn, audio, video va surat yuborish mumkin...	 Smartfonlarning qanday kamchiliklari bor? <ol style="list-style-type: none">1. Narxi qimmat2. Doimiy to‘lovlarni amalga oshirish...
 Smartfonlar qanday imkoniyatlar beradi? <ol style="list-style-type: none">1. Bilim olish2. Til o‘rganish...	 Smartfonlar qanday zarar yetkazishi mumkin? <ol style="list-style-type: none">1. Sog‘lig‘imizga2. Bog‘lanib qolish, qaramlik...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Raqamli texnologiyalar hayotimizda nechog‘lik muhim ahamiyatga ega?
2. Zamonaviy texnologiyalar sizning hayotingizda qanday o‘rin tutadi? Siz o‘z hayotingizni, o‘quv faoliyatingizni ularsiz tasavvur eta olasizmi?
3. Texnologiyalardan foydalanayotganda qanday qoidalarga rioya etish kerak?
4. Texnologiyalarning ijobiy va salbiy jihatlari nimada?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida mavzusi haqida tushunchalar berish, Vatan - O'zbekiston bilan faxrlanishni, mahalla va oilani qadrlashni uqtirish, turli kasb egalarining Vatanimiz rivojiga qo'shgan hissalarini haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: har bir ishni o'z vaqtida, puxta bajarishni, sog'lig'i hamda tabiatni asrashni, kitob o'qishning odamga qanchalik foydali ekanligini, ulug' mutafakkirlarning serma'no o'g'itlari, bir-biridan qiziq rivoyatlar ezgulik va yovuzlik, to'g'ri va noto'g'ri xulqlar qanday bo'lishini, har xil vaziyatlarda inson o'zini qanday tutishi zarurligini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: mashhur insonlarni muvaffaqiyatga erishtirgan fazilatlarini haqida ma'lumotlar berish orqali dunyoqarashini kengaytirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

4-topshiriq. QR-kod orqali berilgan videoda qaysi amallar texnologiyalar yordamida, qaysi amallar texnologiyasiz bajarildi? Guruhingizda o'z fikrlaringiz bilan o'rtoqlashing. Xulosalaringiz asosida quyidagi jadvalni to'ldirishni davom ettiring. Ularni o'zaro taqqoslang: yutuq va kamchiliklarni sanab o'ting.

Zamonaviy texnologiyalar katta imkoniyatlarga ega, biroq ayrim ishlarni texnologiyalarsiz amalga oshirishning ham o'z afzalliklari mavjud. Texnologiyalardan foydalanishda me'yor va muvozanatni shunday tutish kerakki, ulardan foydalanganimizda salomatligimizga, o'qishimizga, qiziqishlarimizga, shu bilan birga, oila a'zolarimiz hamda do'stlarimiz o'rtasidagi munosabatlarimizga zarar yetmasligi kerak.

5-topshiriq. Texnologiyalar bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatingizni tahlil qiling. Qaysi mashg'ulotlar sizga ko'proq zavq va quvonch bag'ishlaydi? Ular orasida eng ko'p vaqtingizni sarflayotgan 3-4 ta faoliyatingizni daftaringizga yozib, belgilab chiqing.

Texnologiyalar yordamida qanday ishlarni bajaraman?	Qaysi vaqtda va qancha vaqt davomida
Axborot izlash	Kunduzi va kechki vaqt/2 soat
Uy vazifalarini bajarish	Kunduzi va kechki vaqt/1 soat
Kompyuterda o'yin o'ynash	Kechki vaqt/3 soat
...	...

Texnologiyalar bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatingiz?	Qaysi vaqtda va qancha vaqt davomida
Ochiq havoda sayr qilish	Kunduz kuni/2 soat
Oila a'zolarim davrasida bo'lish	Kunduz va kechki vaqt/3 soat
...	...

6-topshiriq. Mulohazalarda 2 ta bo'sh o'rinlar bor. Birinchisiga ijobiy (baxtiyorman, xursandman, bandman) yoki salbiy (bezovtaman, xavotirdaman, yolg'izman) hissiyotlaringizni, ikkinchi bo'sh o'ringa esa yuqoridagi faoliyatlaringizdan birini yozing. Masalan: Agar men sport bilan shug'ullansam, o'zimni juda tetik his qilaman. Agar men kompyuterda o'yin o'ynasam, o'zimni yolg'iz his qilaman.

7-topshiriq. Quyidagi fikrlarni avval o'zingiz tahlil qilib ko'ring, keyin sherigingiz bilan fikr almashing.

1. Siz kompyuter, smartfon va internetdan foydalanganingizda ba'zida charchoq, toliqish holatlari yuz beradi. Ushbu holat sog'lig'ingizga aks ta'sir etishi mumkin. Ulardan foydalanishda me'yorlarga qat'iy rioya qilishingiz zarur.

2. Texnologiya va texnologiyalarsiz faoliyatimiz o'rtasida me'yor o'rnatish uchun o'z ishlarimizni rejali asosda tashkil etishimiz kerak. Texnologiyalar sog'lig'imizga zarar yetkazmasligi lozim.

Texnologiyalar hayotimizda o'ta muhim hisoblanadi. Ular yordamida ishlarimizni osonlashtiramiz, uzog'imiz yaqin bo'ladi. Bilimlarimizni oshirishda texnologiyalar katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq ulardan foydalanishda me'yorlarga rioya etmasak, sog'lig'imizga, yaqinlarimiz o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi. Texnologiyalardan zarur paytda foydalanishimiz va bo'sh vaqtimiz bo'lganida oila a'zolarimiz davrasida suhbatlashish, ko'proq ochiq havoda sayr qilishimiz, sport bilan shug'ullanishimiz kerak.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Anvarning telefondan doimiy tarzda foydalanishi sizning odatlaringizga o'xshaydimi?

2. Siz ham Anvar kabi odatlaringizni o'zgartirishga qaror qilganmisiz?

3. Anvarning hikoyasidan o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

4. Odatlaringizni o'zgartirishga tayyormisiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

36 listdan iborat 6-sinf tarbiya fanidan II yarim yillik konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**